

INGLIZ TILIDA YOZUV MALAKASINING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Email: raxdildora18@gmail.com

Tel: +998936764114

UDK.37.378.378.4 ORCID:0009-0002-8419-6495

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilida yozuv kompetensiyasining lingvodidaktik asoslari hamda uni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozma nutq kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, leksik, grammatik, uslubiy va mantiqiy tuzilma elementlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ingliz tilini o'qitish jarayonida yozuv malakasini shakllantirishning samarali metod va usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda kommunikativ yondashuvning ahamiyati yoritiladi. Maqolada ta'lim jarayonida talabalar yozma nutqini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar, xususan, metodik yondashuvlarning yetarli darajada qo'llanilmasligi, amaliy mashg'ulotlar kamligi va til kompetensiyalarining integrativ rivojlantirilmasligi kabi muammolar tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida ingliz tilida yozuv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan samarali lingvodidaktik yondashuvlar va metodik tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: yozuv kompetensiyasi, lingvodidaktika, yozma nutq, ingliz tili o'qitish metodikasi, kommunikativ yondashuv, til kompetensiyalari, metodik muammolar.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НАВЫКОВ ПИСЬМА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИХ РАЗВИТИЯ

Рахманова Дилдора Абдулхамид қизи

Преподаватель Наманганского государственного университета

Аннотация. В данной статье анализируются лингводидактические основы письменной компетенции на английском языке, а также актуальные проблемы ее развития. В исследовании рассматриваются основные структурные компоненты письменной речевой компетенции, включая лексические, грамматические, стилистические и логико-структурные элементы. Кроме того, в статье освещаются эффективные методы и подходы к формированию навыков письма в процессе обучения английскому языку, а также значение современных педагогических технологий и коммуникативного подхода. Также анализируются факторы, препятствующие развитию письменной речи студентов в образовательном процессе, такие как недостаточное применение методических подходов, ограниченное количество практических письменных заданий и недостаточная интеграция языковых компетенций. В результате исследования предлагаются эффективные

лингводидактические подходы и методические рекомендации, направленные на развитие письменной компетенции на английском языке.

Ключевые слова: письменная компетенция, лингводидактика, письменная речь, методика преподавания английского языка, коммуникативный подход, языковые компетенции, методические проблемы.

LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS OF ENGLISH WRITING SKILLS AND CURRENT ISSUES IN THEIR DEVELOPMENT

Rakhmanova Dildora Abdulkhamid qizi

Namangan state university, EFL teacher

Abstract. *This article analyzes the linguodidactic foundations of English writing competence and the current issues related to its development. The study examines the main structural components of written speech competence, including lexical, grammatical, stylistic, and logical organizational elements. In addition, the article highlights effective methods and approaches for developing writing skills in the process of teaching English, as well as the importance of modern pedagogical technologies and the communicative approach. The paper also analyzes factors that hinder the development of students' written communication skills in the educational process, such as the insufficient application of methodological approaches, the limited number of practical writing activities, and the lack of integrated development of language competencies. As a result of the research, effective linguodidactic approaches and methodological recommendations aimed at improving English writing competence are proposed.*

Keywords: *writing competence, linguodidactics, written communication, English language teaching methodology, communicative approach, language competencies, methodological issues.*

KIRISH

Globallashuv jarayoni va xalqaro kommunikatsiyaning jadal rivojlanishi sharoitida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rganishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ingliz tili bugungi kunda ta'lim, ilm-fan, texnologiya hamda xalqaro hamkorlik sohalarida keng qo'llanilayotgan yetakchi tillardan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy til ta'limining asosiy maqsadlaridan biri talabalarda ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iboratdir. Til o'rganish jarayonida tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi to'rtta asosiy nutq faoliyati turi mavjud bo'lib, ulardan yozuv malakasi eng murakkab va ko'p qirrali ko'nikmalardan biri hisoblanadi.

Ingliz tilida yozuv malakasi o'z fikrini yozma shaklda aniq, izchil va mantiqiy ifodalash qobiliyatini anglatadi. Bu jarayon faqatgina matnni yozish bilan cheklanmay, balki leksik, grammatik hamda uslubiy vositalardan to'g'ri foydalanish, fikrlarni tartibli bayon etish va ularni muayyan kommunikativ maqsadga muvofiq tashkil eta olishni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, yozuv kompetensiyasini shakllantirish lingvodidaktik yondashuv asosida amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvodidaktika tilni o'qitishning nazariy va metodik asoslarini o'rganuvchi fan sohasi bo'lib, unda til birliklari va ularni o'qitish metodlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tadqiq etiladi. Mazkur yondashuv asosida yozuv malakasini rivojlantirish jarayoni tilning boshqa nutq faoliyati turlari bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kommunikativ yondashuv hamda interaktiv metodlardan foydalanish yozuv kompetensiyasini samarali rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Biroq amaliyotda ko'plab o'quvchilar va talabalar ingliz tilida yozma nutqni rivojlantirishda turli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bunday muammolar, asosan, lug'at boyligining yetarli emasligi, grammatik bilimlarning sustligi, yozma mashg'ulotlarning kamligi hamda samarali metodik yondashuvlarning yetarli darajada qo'llanilmasligi bilan bog'liqdir. Shu bois ingliz tilida yozuv malakasining lingvodidaktik asoslarini chuqur o'rganish va uni rivojlantirishdagi dolzarb muammolarni aniqlash zamonaviy til ta'limining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilida yozuv malakasining lingvodidaktik asoslarini tahlil qilish hamda uni rivojlantirish jarayonida uchraydigan dolzarb muammolarni aniqlashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida yozuv kompetensiyasini samarali shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar va tavsiyalar ham ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tilida yozuv malakasi tushunchasi va uni rivojlantirish masalalari butun dunyoda tadqiqotchi olimlarning e'tiborini tortgan masala hisoblanadi.

Yozuv malakasi nafaqat ingliz tili birinchi til bo'lgan so'zlashuvchilar balki uni xorijiy til yoki ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar uchun ham bilim va g'oyalarini butun dunyoga tarqatishda muhim rol o'ynaydi. Bu, ayniqsa, oliy ta'lim talabalari uchun muhim bo'lib, ularga o'z fikrlarini bayon qilishda yordam beradigan malakadir. Yozish XXI-asr talabalari uchun eng foydali malakalardan biridir. Amaliy yozish bilimlari talabalarga nufuzli jurnallarda maqolalar, kitob sharhlari va insholar chop etish uchun zamin yaratadi[7]. A.Aulia va B.Bram ta'kidlaganidek, "yozish – bu muloqot vositasi bo'lib, ingliz tilini o'rganishni osonlashtiradi, shuning uchun o'qituvchilar ushbu til ko'nikmasiga yetarlicha e'tibor berishlari kerak" [1].

Shuningdek ingliz tilida yozuv - yozuvning zamonaviy dunyoda har qanday mutaxassis egallashi kerak bo'lgan malakalaridan biri bo'lib, u asosan oliy ta'lim va boshqa ta'lim muassasalarida, ilmiy nashrlarda yozilgan ishlarda o'z aksini topadi. U talabalar va professor o'qituvchilar tomonidan yozilishi kerak bo'lgan turli xil insholar, tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarning o'ziga xos shakllantirilgan tili hisoblanadi [4].

Ingliz tilida yozuv malakasi – bu axborot jarayonlari, xalqaro almashinuvlar, akademik aloqalarning jadal rivojlanishi sharoitida yanada dolzarb bo'lgan va jahon ta'lim hamda ilmiy hamjamiyatlarida keng tarqalgan kompetensiyasi bo'lib, u ingliz tilidagi matnlarni o'qish, tushunish, tuzish va tahrirlashni o'z ichiga oladi. . Har bir fan bo'yicha talabalar, professor va tadqiqotchilar fikrlarni yetkazish, bahs-munozara qilish va ilmiy muloqot qilish uchun ingliz tilida yozuvdan foydalanadilar. Ingliz tilida rasmiy yozuvlar faktlarga asoslanadigan misollar, aniq so'z tanlash, mantiqiy tartib va shaxssiz tusga ega. Ya'ni u ma'lumot beradi, tahlil qiladi va soddalik bilan ishontiradi va o'quvchini ilmiy muloqotda tanqidiy ravishda shug'ullanishga imkon beradi[8]. Demak, oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida yozuvning asosan rasmiy turlaridan foydalanish va o'rgatishga etibor berish maqsadga muvofiq.

Yozuv ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yishda yordam beribgina qolmay, mavjud matnni imloviy savodxonlik bilan shakllantirishga, axborotlarni animatsion shaklda yetkazishga, o'rganilayotgan ilmiy matnlar doirasida yozma shaklda munosabat bildira olishga, mavjudlarini tahrirlay olishga o'rgatadi. U ilmiy maqolalar,

dissertatsiyalar, ma'ruzalar yozishda foydalaniladigan alohida ahamiyatga ega yozma faoliyat turi bo'lib, u ilmiy fikrni aniq va ravshan tarzda yetkazishni talab qiladi va bu holat bevosita uning stilistik, grammatik va strukturaviy shakllanishini belgilaydi. Bundan tashqari akademik ijod murakkab jarayon bo'lganligi sababli, u ko'pincha masalaga tanqidiy, tahliliy yondashishni ham talab etadi. Shuning uchun ham ma'lum bir tilning o'ziga xos ilmiy yozuv qoidalariga amal qilish juda muhimdir [3].

Yozishni o'rganish talabadan analitik fikrlash va argumentativ qobiliyatlarga ega bo'lishni, o'z fikrini tezis shaklida shakllantirish va uni mantiqiy va ierarxik tartiblangan tuzilma yordamida matnda rivojlantirish qobiliyatini talab qiladi [2]. Bu esa ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida yozuv odatda rasmiy ohangda bo'ladi va ma'lum qoidalarga amal qiladi. Yozuvning markaziy jihati uning "*intertekstualigi*", ya'ni mavjud ilmiy suhbatlarga qatnashish va boshqa yozma ishlardan sinchkovlik bilan iqtibos qilish yoki manbalarni keltirish orqali ularga asoslanishidir. Bu esa yozuvchining kengroq ilmiy hamjamiyatga qo'shilganligini ko'rsatadi. Biroq, yozuvning aniq uslubi, mazmuni va tuzilishi uning janri va nashr usuliga qarab farqlanishi mumkin. Shu farqlarga qaramay, barcha yozuvlar umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat: intellektual halollik, bilimni rivojlantirishga intilish va ilmiy yo'nalishning qat'iy metodologiyalarini qo'llash [6]. Bu fikrni yanada oydinlashtiradigan bo'lsak, yozuvni ilmiy asoslangan fikrlarni ifodalovchi matn deb talqin qilinmoqda.

G'arb universitetlarida yozuv butun oliy ta'limga nisbatan fundamental kompetensiyalar majmuasi sifatida tan olinadi, talabalarning yozma savodxonligini shakllantirish esa universitetlarning institutsional majburiyati hisoblanadi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ingliz tilida yozuv malakasining lingvodidaktik asoslarini o'rganish hamda uni rivojlantirish jarayonida uchraydigan dolzarb muammolarni aniqlashga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlar uyg'unligiga asoslangan kompleks metodologiya qo'llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini lingvodidaktika, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi hamda kommunikativ yondashuvga oid ilmiy manbalar tahlili tashkil etadi. Ushbu jarayonda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar yordamida ingliz tilida yozuv kompetensiyasining tarkibiy qismlari, uni shakllantirish tamoyillari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy qismida kuzatish, so'rovnoma va pedagogik tahlil metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalar yozuv malakasining shakllanish darajasi hamda ularning yozma nutqda duch kelayotgan qiyinchiliklari aniqlab olindi. So'rovnoma metodi yordamida talabalar va o'qituvchilarning yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoniga bo'lgan munosabati hamda mavjud muammolar yuzasidan fikrlari o'rganildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida talabalarning yozma ishlari tahlil qilinib, ularda uchraydigan leksik, grammatik va uslubiy xatolar aniqlab chiqildi. Ushbu tahlil natijalari yozuv kompetensiyasini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni belgilash imkonini berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ingliz tilida yozuv malakalarini rivojlantirishda aniqlangan bir qator muammo va qiyinchiliklarni quyidagicha ifodalash mumkin:

I.Lingvistik qiyinchiliklar. Lingvistik qiyinchiliklar tilning strukturaviy birliklari — leksik, grammatik va orfografik vositalardan foydalanish bilan bog'liq qiyinchiliklarni qamrab oladi. 1) Muvofiq leksikani tanlay olmaslik. 2) Muvofiq grammatik bilimning yetishmasligi. 3) Orfografiya va imlo qoidalariga amal qilmaslik. 4) Parafraz qilish ko'nikmasining shakllanmaganligi;

II. Pragmatik qiyinchiliklar. Pragmatik qiyinchiliklar matnning kommunikativ maqsadi, auditoriya xususiyatlari va diskursiv me'yorlarga mos ravishda tuzilishi bilan bog'liq qiyinchiliklarni anglatadi. 1) Yozuv janri va uslubini to'g'ri tanlay olmaslik; 2) Rasmiy uslubni saqlash bilan bog'liq qiyinchiliklar;

III. Psixologik qiyinchiliklar. Talabalarning ichki his-tuyg'ulari va kechinmalari bilan bog'liq holatlar. 1) Yozuv jarayonida xato qilishdan qo'rqish. 2) Ingliz tilida

yozuvdan foydalanishga qiziqishning yo'qligi, 3) talabaning yozma faoliyatga nisbatan motivatsiyaning pastligi.

IV. Kognitiv qiyinchiliklar. Kognitiv qiyinchiliklar tafakkur jarayoni, axborotni qayta ishlash, mantiqiy tahlil va strukturaviy fikrlash bilan bog'liq muammolarni ifodalaydi. 1) yozuv kompetensiyasining amaliy va kasbiy ahamiyati yetarlicha his etilmasligi. 1) Parafraz qilish ko'nikmasining shakllanmaganligi, yoki, mazmunni anglash, qayta ishlash va yangi shaklda ifodalash jarayonida yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalarining yetarli rivojlanmaganligi. 2) Fikrlarni aniq va tushunarli bayon qila olmaslik. 3) Yozuvda fikrlarni tartibli joylashtirmaslik ya'ni, rejalashtirish, strukturaviy modellashtirish va argumentlarni tizimlashtirish jarayonlaridagi kognitiv qiyinchiliklar.

V. Pedagogik muammolar. 1) Yozuvni o'qitishda an'anaviy metodlardan foydalanish. 2) Chet tili o'qitishda yozuv mashqlarini kam berilishi. 3) Ko'proq nazariya o'rgatilishi. 4) O'qituvchi tomonidan xatolar tahlil qilinmasligi. 5) Yozuv malakasini qanday yaxshilash bo'yicha maslahat berilmasligi;

VI. Metodologik muammolar. Metodologik muammolar esa yozuvni o'rgatishdagi samarali o'qitish metodlari va usullarini tanlay olmaslik bilan bog'liq muammolarni anglatadi. 1) yozuv malakasini rivojlantirishda zamonaviy, interaktiv metodlarni to'g'ri tanlay olmaslik, yozuvni o'qitishdagi mashqlar tizimi noto'g'ri tuzilishi.

XULOSA

Bundan anglashiladiki, talabalarning ilmiy va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun faqat umumiy til bilimi yetarli bo'lmay, balki ilmiy tafakkur yuritish, axborotni qayta ishlash, mantiqiy va tahliliy fikrlash hamda olingan natijalarni tizimli ravishda taqdim etish qobiliyatlarini ham rivojlantirish zarur. Bu esa yozuv savodxonligini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Bu jarayon esa bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Talabalarga ingliz tilida ilmiy va kasbiy yozish malakalarini shakllantirish uchun mustaqil izlanishlar olib borish, matnlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni tizimlashtirish va taqdim etish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil etilishi muhimdir. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va elektron axborot manbalaridan samarali foydalanish, akademik me'yor va standartlarga rioya qilish, plagiatdan qochish ham professional akademik

faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu boisdan, oliy ta'lim tizimida talabalarning ingliz tilida yozuv savodxonligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi, bu esa ularning kelajakdagi ilmiy va professional muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos yaratishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aulia, A. R., & Bram, B. (2020). *Grammatical analysis of students' reflective writing*. Journal of English Teaching, pp. 212–219.
2. Bean, J. (2001). *Engaging Ideas: The Professor's Guide to Integrating Writing, Critical Thinking and Active Learning in the Classroom*. Jossey-Bass, pp. 17–18.
3. Enverovna, V. E. (2016). Развитие навыков академического письма на занятиях по иностранному языку. Высшее образование в России, №12, pp. 76–77.
4. Ismagulova, G. K., Plevaya, O. N., Balgabayeva, G. Z., Kulakhmetova, M. S., & Kapanova, D. E. (2016). *The Formation of the Foundation of Academic Writing*. International Journal of Environmental & Science Education.
5. Короткина, И. Б. (2018). Теория и практика обучения академическому письму в зарубежных и отечественных университетах. Москва, pp. 7–8.
6. Swales, J. (1990). *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge: Cambridge Applied Linguistics.
7. Yaseen, P., Rahimi, F., & Sahil, F. (2024). *Analyzing Common Mistakes in First-Year Medicine Faculty Students' Paragraph Writing*. Journal of Research Initiatives, 8(3), Article 7.
8. *Fanning mazmuni, maqsadi va vazifasi: akademik yozuv va uning xususiyatlari*. <https://azkurs.org/fanning-mazmuni-maqsadi-va-vazifasi-akademik-yozuv-va-uning-xu.html>